

---

## 26-sonli maktabning oquv binosi qurilishi yakunlanib, 2024 yil 27 sentabr kuni foydalanishga topshirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabr kungi PQ-404-sonli "2024-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori tasdiqlangan bo'lib, Toshloq tumani bo'yicha 2024-yil Investitsiya dasturiga jami 2 ta, jumladan 13 va 26-maktablarga Respublika mablag'lari xisobidan qo'shimcha 420 o'rinli bo'lgan o'quv binolarini qurish belgilangan. Bugungi kunda 26-sonli maktabning oquv binosi qurilishi yakunlanib, 2024 yil 27 sentabr kuni foydalanishga topshirildi. Maktabning ochilish marosimida Toshloq tumani hokimi A.Djuraboyev hamda maktabgacha va maktab ta'limi boshlig'i A.Soliyev va birqancha tashkilot rahbarlari qatnashib, oquvchi yoshlarga o'zlarini iliq fikrlarini bildirishdi.

2024-09-27 17:34:06